



"TASDIQLAYMAN"
Samarqand markaziy GQE
Boshlig'i

S.Yu. Nematullayev

« 3 » 04 2024 yil

Samarqand markaziy geologiya qidiruv ekspeditsiyasi Zarafshon,
Zarmitan, Shimiliy-Nurota DELari burg'ulash uchastkasi boshliqlari va
burg'ulash ustalari bilan o'tkazilgan yig'ilish

BAYONNOMASI № 9

2024 yil 3 aprel

Samarqand shahri

Qatnashdilar: Samarqand MGQE Zarafshon, Zarmitan, Shimiliy-Nurota DELari
burg'ulash uchastkasi boshliqlari va burg'ulash ustalari, jami-23 nafar.

Yig'ilishda Samarqand MGQE bosh muhandisi O.O.Eshniyozov korrupsiya illatiga qarshi kurashish uchun mas'ul ekanligini ushbu illatni yuzaga keltiruvchi omillarni barvaqt aniqlab bartaraf etish zarurligini ta'kidladi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan markaziy ekspeditsiyada korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash bo'yicha mas'ul xodim A.B.Olmasov, o'z so'zida korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari-qonuniylik, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, ochiqlik, shaffoflik, tizimlilik, davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi, korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi, javobgarlikning muqarrarligi tamoyillariga ta'rif berdi va ushbu illatga qarshi kurashish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi ekanligini ta'kidladi. Shuningdek u yig'ilish ishtirokchilarini "O'zbek geologiya qidiruv" AJning "Korrupsiyaga qarshi tasdiqlangan ichki me'yoriy hujjatlarni amalga kiritish to'g'risida"gi 2023 yil 14 avgustdagi 103-sonli buyrug'i bilan qabul qilingan ichki me'yoriy hujjatlari bilan tanishtirdi. Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish Siyosati, manfaatlar to'qnashuvi va yaqin qarindoshlar tushunchasiga ta'rif berdi. Ushbu siyosatning maqsadi, vazifalari, tamoyil va qoidalari, manfaatlar to'qnashuviga rioya qilmaslik uchun javobgarlik masalalari va Axloq kodeksining maqsadi, kasbiy madaniyat, xizmat faoliyatiga oid qoidalar, jamiyatning mulkiga va ma'lumotlariga munosabat masalalariga izoh berdi. "Toza stol" qoidalariga rioya qilish zarurligini takidladi. "Toza stol" qoidalariga rioya qilmaslikning salbiy oqibatlari masalalariga to'xtaldi.

Q A R O R

1. Samarqand markaziy GQE va tizim osti dala ekspeditsiyalari ishchi xodimlarida korrupsiyaga qarshi muvofiqlik munosabat shakllantirish maqsadida "O'zbek geologiya qidiruv" AJning "Korrupsiyaga qarshi tasdiqlangan ichki me'yoriy hujjatlarni amalga kiritish to'g'risida"gi 2023 yil 14 avgustdagi 103-sonli, 2023 yil 29 mart sanasidagi 49-sonli buyruqlari bilan qabul qilingan ichki me'yoriy hujjatlarni Markaziy va dala ekspeditsiyalarida muvofiqlik qilish hamda shu mavzuda davra suhbatlari o'tkazish.

Bayonnoma tuzdi:

A.B.Olmasov





